

SINGARMONIZM - TURKIY TILLAR UCHUN MUSHTARAK FONETIK HODISA

Furqat Nurmanov,

O'zbekiston ommaviy kommunikatsiyalar va jurnalistika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti

E-mail: nurmanovfurqat@gmail.com

Annotatsiya. Turkiy tillar oilasiga mansub tillar uchun singarmonizm umumiy fonetik hodisa hisoblanadi. Bu oilaga mansub tillarda singarmonizm hodisasi tarixan va bugungi davrda qat'iy amal qiladi. O'zbek adabiy tilida esa bu fonetik hodisa cheklangan – og'zaki so'zlashuv nutqida mavjudligi, adabiy tilda esa amal qilmasligi tadqiqotlarda keltiriladi. Maqolada turkiy tillar oilasiga mansub tillar uchun mustarak fonetik hodisa – singarmonizm haqidagi ilmiy-adabiy manbalardagi qarashlar va xulosalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, turkiy til, til tarixi, fonetika, fonetik hodisa, singarmonizm, talaffuz, imlo.

Аннотация. Сингармонизм является общим фонетическим явлением для языков, принадлежащих к тюркской языковой семье. В языках этой семьи явление сингармонизма исторически и в настоящее время строго соблюдается. В узбекском же литературном языке это фонетическое явление ограничено: в исследованиях отмечается его наличие в устной разговорной речи при отсутствии в литературном языке. В статье излагаются взгляды и выводы из научно-литературных источников о сингармонизме – фонетическом явлении, общем для языков тюркской семьи.

Ключевые слова: языкознание, тюркский язык, история языка, фонетика, фонетическое явление, сингармонизм, произношение, правописание.

Annotation. Synharmonism is a phonetic phenomenon characteristic of languages belonging to the Turkic language family. In these languages, it is strictly observed both historically and at the present time. In the Uzbek literary language, synharmonism is represented in a limited form: studies have noted its presence in oral colloquial speech, but not in the literary language. This article examines the views and conclusions based on scientific and literary sources about synharmonism, a phonetic phenomenon common to the languages of the Turkic family.

Keywords: linguistics, Turkic languages, history of languages, phonetics, phonetic processes, synharmonism, pronunciation, spelling.

Kirish. Tilshunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda [1;-B.7-10] til va uni o'rganishga qiziqish eramizdan avvalgi V asrlarda paydo bo'lganligi, bu fan dastlab falsafa tarkibida rivojlanlanganligi, jamiyat taraqqiyotida yuz bergan turli o'zgarishlar dastlab tilda aks etishi, til ayrim qonuniyatlarida jamiyat taraqqiyoti asosisida ayrim o'zgarishlar kuzatilishi keltiriladi. Demak, tilshunoslik taraqqiyoti davrning ijtimoiy-siyosiy voqeligi bilan bevosita bog'liqdir.

O'zbek tili tarixan uzoq davrlarni bosib o'tgan, keng ko'lamli tadqiqot olib borilayotgan hozirgi davrga qadar turli o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, milliy shakli, grammatik qurilishini tamoman o'zgartirmagan, o'ziga xos leksik, fonetik, grammatik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi qadimiy tillardan biridir. Mutaxassislar fikricha, turkiy tillar taraqqiyot davri bir necha bosqichli bo'lib, har bir bosqichda til sathlari ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning o'sishi bilan taraqqiy etib borgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tillar oilalarga bo‘linishida ularning o‘zaro o‘xshash jihatlariga asosiy e‘tibor qaratiladi. Turkiy tillar fonetikasidagi singarmonizm hodisasi shu tillar uchun mustarak hodisalardan biri.

Qadimgi turkiy tilda singarmonizm qonuniyati amalda bo‘lganligi, bu davrda birinchi bo‘g‘inning qattiq va yumshoqligiga ko‘ra so‘z yoki butun bir jumla qattiq yoxud yumshoq talaffuz qilinganligi til tarixiga oid ilmiy adabiyotlarda keltiladi[2; -B. 36-38]. So‘zdagi tovushlarning bir-biriga, asosdan so‘nggi qo‘shimchalarning talaffuz jihatidan asosga uyg‘unlashuvi singarmonizm (uyg‘unlashuv) deb yuritiladi. Bu hodisa qadimgi turkiy tilde qat‘iy amal qilgan, so‘zning fonetik-fonologik tabiati shu qonunga moslashgan. Adabiyotlarda keltirilganidek, turkiy tillar tarixida, xususan, eski o‘zbek tilida singarmonizm temir qonun sifatida amal qilgan. Eski o‘zbek tilining fonetik qurilishi, morfo-fonologik tizimi ana shu qonunga bo‘ysungan edi. O‘tmishda yaratilgan grammatika va lug‘atlarda ushbu hodisaga ishora etuvchi qaydlarga duch kelamiz[3; -B. 126].

Turkiy xalqlar uchun mushtarak obida hisoblangan O‘rxun-Enasoy tosh bitiklari, Markaziy Osiyo turkiy xalqlarining umumiy adabiy tili namunalari bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul-haqoyiq” va boshqa shu kabi o‘lmas asarlar tilida qat‘iy amal qilgan singarmonizm hodisasi tadqiqotchilarning bugungi kunga qadar diqqat e‘tiborida bo‘lib qolmoqda.

Qış yayğaru suvlanur
Er et menin yavrulur
İglär yemä savrïyur
Et yin taqï bekrişür[4;-B.294)
Yoq ersä bitig bu kişilär ara,
Tilin sözkä kim bütgäy erdi kör-ä. [5;-B.266)

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning turkiy tilda bitilgan asarlar matnida ham singarmonizm hodisasi to‘liq amal qilgan:

*Tushtum mane notavon arog‘a
Yuz ranju balou ibtilog‘a.* [6;-B.11].

Turkiy tillar tarixiy fonetikasiga oid ishlarda “singarmonizm” atamasi qo‘llanmagan bo‘lsa-da, o‘sha davrlarda yaratilgan grammatika va lug‘atlarda uyg‘unlashuv hodisasi to‘liq amal qilganligini ko‘rish mumkin.

Muhokama. Til rivojida asosiy va yetakchi faktor uning o‘z ichki qonunlarining uzluksiz davomiyligidadir. Bu qonuniyatlar turli munosabatlar asosida ma‘lum o‘zgarishlarga uchraydi. Hattoki, ma‘lum bir til ichki qonuniyatlari o‘zga til ta‘siri natijasida shunday o‘zgarishga uchraydiki, ma‘lum til oilasiga mansub biror til uchun

tarixan mansub bo'lgan ayrim qonuniyatlar hozirgi kunda o'z mohiyatini yo'qotgan. Mana shunday fonetik qonuniyat – singarmonizm hodiysi.

Tarixan barcha turkiy tillar oilasiga mansub tillar fonetikasida amal qilgan singarmonizm hodisasi o'tgan asr boshlaridan o'zbek adabiy tilidan sun'iy chiqarilib yuborilganligi yuzasidan tadqiqotlarda ko'plab asosli ilmiy fikrlar mavjud.

Turkiy tillar tarixida singarmonizm hodisasi haqida birinchi M. Koshg'ariy fikr bildirib, turkiy so'zlarning o'zak xarakteriga qarab qo'shimchalarning ham qattiq, yumshoqlikda farqlanganligini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy “Muhokamat ul lug'atayn” asarida turkiy tillarga xos singarmonizm qonuniyatiga munosabat bildirib, bu hodisa asosida turkiy tilda unli tovushlarning 6 ta emas 9 ta ekanligini amaliy isbotlagan. Alisher Navoiy ilmiy merosi til xususiyatlari tadqiqiga oid ishlarda “XV asr o'zbek adabiy tilida singarmonizmning har uchala qonuni, ya'ni unlilardagi tanglay uyg'unligi, lab uyg'unligi hamda undoshlardagi jaranglilik va jarangsizlik uyg'unligi amal qilgan”ligi [7;-B.26] ta'kidlanadi.

*Necha **biyik** aylasang so'zungni.*

*Ondin **biyik** etgabiz o'zungni*[6;-B.254]

XX asr boshlarida o'zbek ziyolilari o'rtasida milliy til singarmonizmi yuzasidan bahs-munozaralar avj oldi. O'zbek tilida singarmonizm masalasida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ilmiy qarashlarini dastutulamal qilib olgan Fitrat va Qayum Ramazon o'zbek tilida singarmonizm qonuniyati to'la amal qiladi, unlilar yo'g'on, ingichkalik xususiyatlariga ko'ra farqlanadi va shu sabab unli tovushlar soni o'zbek tilida 8-9 ta deb hisoblaydi.

Tilshunos olim, akademik A. Hojiyev “O'zbek tili” nomli maqolasida adabiy tilimizda singarmonizm birmuncha sustroq ravishda bo'lsa ham mavjudligini, ayrim shevalarda esa u fonetik qonuniyat ekanini bayon qilib, “affikslar –kan,-qan, gan/-g'an kabi singarmonistik variatsiyalar bilan keladi”[8;-B.426-437], -deb yozadi. O'zbek tilida singarmonizm amal qilmaydi, degan xulosa bu tilga oid yana bir qonuniyatni - o'zbek tilining agglyunativ til ekanligini inkor etadi.

Natijalar. Singarmonizm oldingi bo'g'in (yoki o'zak)dagi unliga keyingi bo'g'in (yoki bo'g'inlar)dagi unlilar, ba'zan undoshlarning artikulyatsiya o'rni va usuliga ko'ra moslashuvdir. A.M. Sherbak ta'kidlaganidek, bir bo'g'inli so'zlardagi unli sifat jihatidan doimiy va mustaqil bo'lib, ko'p bo'g'inli so'zlardagi keyingi unlilar esa birinchi bo'g'inga muvofiqlashadi. Masalan, bar -gan -lar, kol-ga (o'zbek tili qipchoq shevalari), yuksaltnak (ozarbayjon tili). Singarmonizmning bu ko'rinishi – palatal yoki tanglay singarmonizmida birinchi bo'g'in unlisi mustaqil bo'lib, keyingi bo'g'indagi unlilar unga tobe bo'ladi, ya'ni birinчисiga moslashadi. Palatal yoki tanglay singarmonizmi qadimiy bo'lib, turkiy bobo til davriga oiddir.

Tilshunos H.Ne'matov yozishiha[9;-B.45], singarmonizm turkiy tillarning muhim fonetik xususiyatlaridan. Uyg'unlik fonetik hodisalardan biri bo'lgan tovush singishi (assimilyatsia)ning bir turidir. Tovushlar singishi oldinga yoki orqaga yo'nalgan bo'lishi mumkin. Zamonaviy tilshunoslikda assimilyatsianing bu ikki turi: progressive assimilyatsiya va regressive assimilyatsiya deb o'rganiladi. O'zbek tilida oldinga yo'nalgan singish(birta -bitta)dan ko'ra orqaga yo'nalgan singish ko'p tarqalgan. Tovushlar uyg'unligi keyinga yo'nalgan singishning bir ko'rinishidir. Bunda oldingi oldingi (o'zakdagi) tovushlar keyingi (qo'shimchadagi)ga ta'sir etib, o'ziga moslashtiradi.

Turkiy tillarda dastlabki bo'g'indagi unilarning lablanishi natijasida keyingi bo'g'indagi unilar ham lablanadi: qirg'. köllärdä, alt. kalda, yoq. qorobun "ko'ryapman"; turuoxput "turamiz", o'golar "bolalar", qirg'. quldor "qo'llar", turk. kolu "qo'li". Turkiy tillardagi labial singarmonizm unli hosil bo'lishida labning ishtirokiga asoslanadi: o, ö, u, ü unilari lablangan, a, a, ı, i, unilari lablanmagan unilardir. Labial singarmonizm, ayniqsa, qirg'iz tilida yaqqol ifodalanadi: duioloro "tuyalarga", oglonlora "o'g'illarga", qopoloq "kapalak", tundo "tunda", koldorunuzdun "qo'llaringizdan". Singarmonizmning bu turi o'g'uz va qipchoq guruhiga mansub tillarda keng tarqalgan bo'lib, o'zbek va xakas tillarida kam kuzatiladi.

Ilmiy adabiyotlarda singarmonizm hodisasi asosan tilning dialectal qatlamida kuzatilishi keltiriladi. Xorazm shevasi tadqiqotchisi F.Abdullayevga ko'ra,[10;-B.134] tovushlar uyg'unligi quyidagi holatlarda buziladi:

1. Boshqa tillatdan kirgan ayrim so'zlarda: dərman, dərya, əyyam.
2. Qo'shma so'zlarda: ichan(ich yon - ichkari), deshan (tashqari).
3. Egalik ma'nosini bildiruvchi – ньнь affiksi: араппньнь, мәктəбньнь.
4. –raq affiksi: ullъraq, къchchъraq.
5. Kelasi zamon sifatdosh affiksi: dog'ын// tog'ын, baradog'ын.
6. Hozirgi zamon fe'lini hosil qiluvchi affiks: yatъr, yeg'lyatъr.
7. So'roq yuklamasi: nə.
8. Ta'kid yuklamasi: lə.
9. To'liqsiz fe'l ə va uning turli formalari: bara+dəkən

Singarmonizm urg'u bilan ham bog'liq bo'lib, ularning har ikkisi so'zning fonetik belgisi hisoblanadi.

Xulosa. Har bir til o'ziga xos tarixiy shakllanish tendensiyasiga, turli tarixiy jarayonlar natijasida ma'llum o'zgarishlariga uchrab, kommunikatsiya jarayoni uchun xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisadir.

Turkiy tillar og'zaki nutqi, adabiy tilida saqlanib qolgan singarmonizm hodisasi o'zbek adabiy tilida amal qilmasligi haqidagi ilmiy xulosalar bosqinchilik siyosatining asl maqsadi – o'zbek tilini turkiy tillarda ajratish, milliy tilning o'ziga xos fonetik, orfografik,

grammatik xususiyatlarini asl tarixidan ayirish uchun olib borilgan ikkiyuzlamachilik siyosatining asl yuzini ko'rsatdi.

Ko'p asrlik milliy tarix, madaniyat, ilm-fan yutuqlaridan bahramand bo'lish, ulardan zamonaviy ta'lim-tarbiya, tadqiqot va taraqqiyotni belgilashga asos bo'ladidan turli g'oyalar kashfiyotida milliy tilda yaratilgan adabiy merosni to'g'ri tushunish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun milliy til tizimi va uning sathlarida sun'iy o'zgarishlarni hosil qilish asl asosidan uzoqlashtiradi, milliy fan yuksalishi va taraqqiyotiga to'siq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. Toshkent, 2009.; Turobov A. Umumiy tilshunoslik(o'quv qo'llanma). Samarqand, 2020.
2. Abdushukurov B. Qadimgi turkiy til [Matn]: o'quv qo'llanma / Toshkent: "Navoiy universiteti" NMU, 2019.
3. Sodiqov Q. Turkiy til tarixi. Qo'llanma/ Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti, 2009.
4. Махмуд Қошғарий Туркий сўзлар девони (Девону луғатит турк). III том. Тошкент, "ФАН". 1963.
5. Юсуф Хос Ҳожиб "Кутадғу билиг", Т., 1991.
6. А.Навоий Мукамал асарлар тўплами, Т.: "ФАН", 1998. XIV том.
7. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари, Тошкент, "ФАН", 1984.
8. Ходжиев А.П. Узбекский язык // "Языки мира. Тюркские языки". Бишкек, 1997.
9. Неъматов Ҳ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. Тошкент "Ўқитувчи", 1992.
10. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. Тошкент: "ФАН", 1961.

NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934